TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# TOSHKENT VILOYATIDA

# QURILISH ISHLARI

## 2024- YIL
## YANVAR-NOYABR

**2024- yilning yanvar-noyabr oylarida Toshkent viloyatida jami 21290,6 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 115,5 % ni tashkil etdi.**



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.



# 2024- yil 1-dekabr holatiga ko‘ra qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar, *birlikda*




**1332** — •Bino va inshootlar qurish

**372** — •Fuqarolik obyektlarini qurish

**942** — •Ixtisoslashtirilgan quilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘ rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2023- yilning shu davriga nisbatan 89,9foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 50,3 foiz ulushni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 87,9foizga yetdi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 14,0 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 98,7 foizga yetdi;

ixtisoslashtirilgan qurili sh ishlari yo‘nalishi esa 35,6 foiz ulushni va o‘tgan yilga nisbatan 89,5foizni tashkil etdi.

# Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar, *birlikda*

| | Holatiga: | | o‘tgan yilga nisbatan, %da |
|---|---|---|---|
| | 01.12.2024- y. | 01.12.2023- y. | |
| **Toshkent viloyati** | **2646** | **2945** | **89,8** |
| *shaharlar:* | | | |
| Nurafshon | 114 | 126 | 90,5 |
| Olmaliq | 114 | 142 | 80,3 |
| Angren | 152 | 174 | 87,4 |
| Bekobod | 110 | 119 | 92,4 |
| Ohangaron | 89 | 105 | 84,8 |
| Chirchiq | 283 | 303 | 93,4 |
| Yangiyo‘l | 79 | 74 | 106,8 |
| *tumanlar:* | | | |
| Oqqo‘rg‘on | 52 | 60 | 86,7 |
| Ohangaron | 64 | 65 | 98,5 |
| Bekobod | 79 | 89 | 88,8 |
| Bo‘stonliq | 114 | 117 | 97,4 |
| Bo‘ka | 85 | 115 | 73,9 |
| Quyi Chirchiq | 52 | 61 | 85,2 |
| Zangiota | 207 | 220 | 94,1 |
| Yuqori Chirchiq | 157 | 187 | 84 |
| Qibray | 287 | 299 | 96 |
| Parkent | 92 | 94 | 97,9 |
| Piskent | 63 | 62 | 101,6 |
| O‘rta Chirchiq | 123 | 150 | 82 |
| Chinoz | 76 | 89 | 85,4 |
| Yangiyo‘l | 99 | 131 | 75,6 |
| Toshkent | 155 | 163 | 95,1 |

# 2024- yil 1-dekabr holatiga ko‘ra Toshkent viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, *% da*

**Qibray (10,8)**



**Chirchiq sh. (10,7)**



**Zangiota (7,8)**





# Qurilish ishlari
# 2024- yil yanvar- noyabr oylari uchun

| | Qurilish ishlari, mlrd. so‘m | shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | yirik qurilish tashkilotlari | kichik va mikrofirmalar | norasmiy sektor |
| **Toshkent viloyati** | **21290,6** | **3657,6** | **8958** | **8675** |
| **shaharlar:** | | | | |
| Nurafshon | 613,2 | 11,8 | 548,6 | 52,8 |
| Olmaliq | 2366,2 | 1897,7 | 360,3 | 108,2 |
| Angren | 434,2 | 46,3 | 308,9 | 79 |
| Bekobod | 613,8 | 231,1 | 308,9 | 73,8 |
| Ohangaron | 112,3 | 9,3 | 46,5 | 56,5 |
| Chirchiq | 1249,2 | 87 | 1085,2 | 77 |
| Yangiyo‘l | 362 | 1,9 | 290,2 | 69,9 |
| **tumanlar:** | | | | |
| Oqqo‘rg‘on | 318,4 | 0 | 213,5 | 104,9 |
| Ohangaron | 303,9 | 6,6 | 202,4 | 94,9 |
| Bekobod | 148 | 6,8 | 82,9 | 58,3 |
| Bo‘stonliq | 497 | 126,4 | 153,5 | 217,1 |
| Bo‘ka | 252,8 | 25 | 102,5 | 125,3 |
| Quyi Chirchiq | 575 | 6,3 | 452,2 | 116,5 |
| Zangiota | 1166,1 | 17 | 766 | 383,1 |
| Yuqori Chirchiq | 910,1 | 102 | 560,4 | 247,7 |
| Qibray | 1451,1 | 554,6 | 302,2 | 594,3 |
| Parkent | 565,5 | 45,1 | 378,9 | 141,5 |
| Piskent | 234,7 | 17,8 | 111,3 | 105,6 |
| O‘rta Chirchiq | 503,1 | 0 | 277,8 | 225,3 |
| Chinoz | 260,7 | 4,4 | 79,1 | 177,2 |
| Yangiyo‘l | 1183,2 | 31,4 | 955,2 | 196,6 |
| Toshkent | 1091,8 | 10,1 | 280,3 | 801,4 |
| Yashirin iqtisod | 6078,3 | 419 | 1091,2 | 4568,1 |



**2024- yilning yanvar-noyabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 3657,6 mlrd so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2023- yilga nisbatan 124,4 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2023- yildagi ko‘rsatkich darajasidan 0,1 % punktga kamayib 17,2 % ni tashkil etdi.**

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

**2024- yilning yanvar-noyabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 42,1 % ni to‘g‘ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 0,1 % punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 107,9 % ni tashkil etgan holda 8958,0 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.**

**Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, %da**

**42,1**

**2024- yil Yanvar-noyabr**

**44,5**

**2023- yil Yanvar- noyabr**





***MA’LUMOT UCHUN**: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Chirchiq shaxri (1058,2mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 12,1 % ), Yangiyo‘l tumani( 955,2 mlrd. so‘m yoki 10,7 %) Zangiota tumani (766,0 mlrd .so‘m yoki 8,6 %) ga to‘g‘ri keldi.*

# Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 40,7 % tashkil etdi yoki 8675,0 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 120,6 % ni tashkil etdi.

| 2023 yil yanvar-noyabr | 2024- yil yanvar -noyabr |
|---|---|
| **6929,6** *mlrd so‘m* | **8675,0** *mlrd so‘m* |
| **39,8 %** | **40,7 %** |

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda**




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **426,1** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **20864,5** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,0 %** va **98,0 % ni** tashkil etdi.

Davlat mulki     Nodavlat mulk

***Ma’lumot uchun:*** ***Qurilish biror [inshootni](inshootni) tayyorlash jarayoni, shuningdek shunday jarayon ketayotgan joydir. Qurilish murakkab jarayon bo‘lib, unda bir necha vazifalar amalga oshiriladi. Qurilish — moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri; turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuri-tish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma’noda yaratuvchilik jarayoni. Tugallangan va foydalanishga topshirish uchun tayyorlangan ishlab chiqarish korxonalari, turar joylar, jamoat binolari, inshootlari va boshqa obyektlar Qurilish mahsu-lotlari hisoblanadi.***

***Qurilish O‘zbekiston Respublikasidagi moddiy ishlab chiqarishning eng muhim tarmoqlaridan birini tashkil etadi. Respublika iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot tarkibida salmog‘iga ko‘ra Qurilish sanoat va qishloq xo‘jaligidan keyin 3-o‘rinda turadi.***

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo’limi**

Aloqa telefoni: ***(71) 202-86-70***